

## **MENING ILK OVOZIM**

Yoshim o'n sakkizda. Birinchi ovoz berishim bo'lajak Prezident uchun bo'lishini o'ylasam, hozirdan hayajonlanyapman. Demak, yurtimizning kelgusi besh yillikdagi taraqqiyotini belgilovchi bu muhim siyosiy tadbirda mening ham o'z ovozim bo'ladi!

Saylovga daxldorligim munosabati bilan televidenie, ijtimoiy tarmoqlarda mavjud beshta partiya qo'ygan nomzodlar, ularning dasturlari haqidagi chiqishlarni diqqat bilan kuzatib boryapman. Birinchi ovoz beradigan do'stlarim ham shunday. Nomzodlar haqida fikrlashamiz, ba'zan tortishamiz ham. Bu borada har kim o'z fikriga ega bo'lishi kerak-da.

Saylov o'tadigan 24 oktyabar kuni o'zimizning uchastkamizga borib, ovoz berish kabinasiga kirganimizda, el-yurt "yuki"ni ko'tarishga qodir insonni tanlab ovoz berishimiz, O'zbekistonimizning bundan keying besh yilligi taqdirini belgilashini unutmasligimiz kerakligini his qilib turibman. Ishonchim komilki, hamqishloqlarimiz saylovda faol ishtirok etadilar.

**Jahongir RASULXO'JAEV,**

**1-kasb-hunar maktabi talabasi.**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-09-25 11:59:31